

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARI RO'YXATINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARI RO'YXATINITASDIQLASH TO'G'RISIDA

**(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 32-son, 270-modda;
2015 y., 30-son, 398-modda)**

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tasniflari o'zgarganligi, yangi yo'llar qurilgani va qayta qurilganligini, avtomobil yo'llarining toponomik atalishidagi o'zgarishlarni inobatga olib, "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [5-moddasiga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. "O'zavtoyo'l" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasining O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llari ro'yxati [1-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llari ro'yxati [2-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 2005 yil 12 avgustdagi 194-son [qarori](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A. Xo'jaev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,

2010 yil 5 avgust,

169-son